

O'ZBEK OILALARIDA ER VA XOTIN MULOQOTINING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTDA O'RGANILISHI

*Nomozova O'g'iloy Akmaljon qizi,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot institute tayanch doktoranti,
Email: ogiloy.nomozova@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek oilalarida er va xotin o'rtaсидаги muloqotning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Muloqot jarayoni til va madaniyatning o'zaro ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada o'zbek oilalariga xos bo'lgan muloqot modellari, nutqiy odob qoidalari, murojaat shakllari, so'zlashuv uslublari va ularning madaniy ildizlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada gender omilining muloqotga ta'siri, oilaviy qadriyatlarning nutqiy ifodasi kabi masalalar ham tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar. Oila, muloqot, milliy qadriyat, madaniyat, lingvokulturologiya, oilaviy muloqot, kommunikativ, interaktiv, perseptiv, lisoniy va nolisoniy birliklar, milliy mentalitet, gender rollar, ma'naviy qadriyat.

ÖZBEK AİLLERİNDE EŞ VE KADIN İLETİŞİMİNİN LİNGOKÜLTÜROLOJİK YÖNÜNDEN İNCELENMESİ

*Nomozova Oğiloy Akmaljon kızı,
Aile ve Gender araştırma enstitüsü doktora öğrencisi (PhD)*

Özet. Bu makale, Özbek ailelerinde koca ve eş arasındaki iletişim dilbilimsel ve kültürel özelliklerinin incelenmesine ayrılmıştır. İletişim süreci, dil ve kültürün etkileşimi açısından analiz edilir. Makale, Özbek ailelerine özgü iletişim modellerini, konuşma görgü kurallarını, hitap biçimlerini, konuşma tarzlarını ve kültürel köklerini ele almaktadır. Ayrıca, makalede cinsiyet faktörünün iletişime etkisi, aile değerlerinin konuşma ifadesi gibi konular da analiz edilmiştir.

Anahtar kelimeler. Aile, iletişim, ulusal değer, kültür, dil ve kültürbilim, aile iletişimimi, iletişimsel, etkileşimli, algusal, dilsel ve dil dışı birimler, ulusal zihniyet, cinsiyet rolleri, manevi değer.

ИЗУЧЕНИЕ ОБЩЕНИЯ МУЖА И ЖЕНЫ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ

*Номозова Угилой Акмалжон кизи,
Научно-исследовательский институт Семьи и Гендер докторант (PhD),*

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию лингвокультурологических особенностей общения между мужем и женой в узбекских семьях. Процесс общения анализируется с точки зрения взаимовлияния языка и культуры. В статье рассматриваются модели общения, характерные для узбекских семей, правила речевого этикета, формы обращения, стили разговора и их культурные корни. Также анализируются такие вопросы, как влияние гендерного фактора на общение и речевое выражение семейных ценностей.

Ключевые слова. Семья, общение, национальная ценность, культура, лингвокультурология, семейное общение, коммуникативный, интерактивный, перцептивный, языковые и неязыковые единицы, национальный менталитет, гендерные роли, духовная ценность.

LINGUOCULTUROLOGICAL STUDY OF COMMUNICATION BETWEEN MAN AND WIFE IN UZBEK FAMILIES

Nomozova Ugiloy Akmaljon kizi,
Family and Gender research institute doctoral student (PhD)

Annotation. This article is devoted to the study of the linguocultural features of communication between husband and wife in Uzbek families. The process of communication is analyzed from the point of view of the interaction of language and culture. The article examines communication patterns characteristic of Uzbek families, rules of speech etiquette, forms of address, speech styles, and their cultural roots. The article also analyzes such issues as the influence of the gender factor on communication, the speech expression of family values.

Keywords. Family, communication, national value, culture, linguoculturology, family communication, communicative, interactive, perceptual, linguistic and non-linguistic units, national mentality, gender roles, spiritual value.

Oila jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, oilada, avvalo, er va xotin munosabatlari muhim ahamiyatga ega. Er va xotin munosabatlariga esa bir qancha omillar ta’sir qilishi mumkin. Ana shunday omillardan biri erkak va ayolning o‘zaro muloqoti hisoblanadi. O‘zbek oilalarida er-xotin o‘rtasidagi muloqot faqatgina shaxsiy munosabatlarni emas, balki milliy qadriyatlar va madaniyatni ham aks ettiradi. Ushbu maqolada o‘zbek oilalarida er va xotin o‘rtasidagi muloqot lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Muloqot insonlar o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuv jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayonda kishilar bir-biri bilan nafaqat ma’lumot almashinadi, balki muloqot ishtirokchilari (so‘zlovchi va tinglovchi) mazkur jarayonda bir-biriga hissiy ta’sir qiladi. Shundan kelib chiqib muloqotning quyidagi elementlari qayd etiladi:

- muloqotning kommunikativ tomoni – muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi axborot almashinuvi;
- muloqotning interaktiv jihat – muloqot ishtirokchilarining o‘zaro ta’sirlashuvi;
- muloqotning perseptiv tomoni – muloqot ishtirokchilarining muloqot jarayonida bir-birini idrok etishi va bilishi [5, 6 b.].

Jahon olimlari oilaviy muloqotning ahamiyati borasida turli nazariyalarni ilgari surganlar. Masalan, amerikalik psixolog John Gottman oilaviy munosabatlarning barqarorligi uchun hurmat va ochiq muloqot muhim omillar ekanligini ta’kidlaydi [1]. Shuningdek, Rossiyalik olim V.A.Labunskaya er-xotin o‘rtasidagi muloqotda noverbal vositalarning o‘rni muhim ekanligini qayd etadi [9].

Muloqot jarayoni murakkab bo‘lib, bunda erkak va ayollar nutqi alohida ahamiyatga ega. Binobarin, oilaviy muloqotda ham, avvalo, er va xotinning samimiy va samarali muloqoti oilaviy munosabatlar ijobiy kechishi uchun asos vazifasini bajaradi. Ushbu muammoni o‘rganishda erkak va ayolning gender jihatdan o‘ziga xos muloqot uslubi, nutqi e’tiborga olinishi kerak. Shuni ham ta’kidlash kerakki, oilaviy muloqot yoxud er va xotin muloqoti bilan bog‘liq muammolarni tadqiq qilishda muayyan jamiyatning milliy va madaniy an’ana, urf-odat va qadriyatlarini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Ya’ni er va xotin muloqotini lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o‘zaro aloqasi va o‘zaro ta’sirini hamda bu jarayonni lisoniy va nolisoniy (madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandir” [7, 125-126 c.].

O‘zbek oilalarida er va xotin o‘rtasidagi muloqotni lingvokulturologik aspektida o‘rganishda, avvalo, oiladagi rollarga e’tibor qaratiladi. O‘zbek oilalarida er va xotin o‘rtasidagi muloqot odob-axloq qoidalariga asoslangan bo‘lib, milliy mentalitetga ko‘ra erkak oila boshlig‘i sifatida ko‘riladi, ayol esa oiladagi uyg‘unlik va mehr-oqibatni saqlovchi shaxs hisoblanadi. Shu boisdan ularning muloqoti do’stona, hurmat va e’tibor bilan yo‘g‘rilgan bo‘lishi kerak. M.Umarovaning fikricha, “o‘zbek milliy oilalariga xos bo‘lgan muomala madaniyati, oilaviy an’analar, udum, rasm-rusumlar o‘sib kelayotgan avlod ongiga tushunchalar, aniq bilimlar, anglangan munosabatlar tarzida

singdirilsa, ular o’smirda oilaviy qadriyatlarga nisbatan mutanosib ijtimoiy tasavvurlar shakllanishida muhim rol o‘ynaydi” [8, 10-11 б.].

O‘zbek oilalarida er va xotinlar, asosan, qaysi mavzuda suhbatlashishi bo‘yicha savol berilganda, respondentlar (o‘zbek oilalaridagi er va xotinlar) bir qancha mavzularni bayon qilishdi. Bular quyidagilar:

- oilaviy majburiyatlar va mas’uliyatlar taqsimoti;
- farzandlar tarbiyasi va ularning ta’limi;
- kundalik hayot va xo‘jalik ishlari;
- oilaviy bayram va an’analarga bog‘liq masalalar.

Demak, o‘zbek oilalarida er va xotin o‘rtasidagi suhbat mavzulari ko‘pincha oilaviy muammolarga qaratilgan bo‘ladi.

Er va xotin o‘rtasidagi o‘rtasidagi muloqot turli jihatdan o‘ziga xoslik kasb etadi. Masalan, oilada er va xotin muloqotining lingistik xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Hurmat shakkari – muloqotda mehr va hurmatni ifodalovchi so‘zlar ko‘p ishlatiladi (masalan, “jonim”, “azizim”, “begim” (ayollarda) va h.k.). Shuningdek, o‘zbek oilalarida er-xotinning bir-biriga murojat qilishida ham o‘ziga xos murojaat birliklarini uchratishimiz mumkin. Masalan, erkaklarda – “onasi/onajonisi”, ayollarda – “dadasi/dadajonisi”. Yan bir jihat ham qiziq: o‘zbek oilalarida katta yoshdagi er-xotinlar nutqida bir-biriga murojaat qilayotganda oiladagi to‘ng‘ich farzandining nomini aytib chaqirishi ham an’anaga alangan va bu yuqori darajadagi hurmat belgisi sifatida qaraladi. Hozirgi kunda esa yosh er-xotinlar orasida bunday murojaat shakli kuzatilmayapti.

2. Ortiqcha rasmiylik yo‘qligi – er-xotin o‘rtasida samimiylitni ifodalovchi so‘zlar ishlatiladi. Umuman olganda, ularning nutqida tilning barcha uslubarini kuzatish mumkin, biroq er va xotin nutqida og‘zaki so‘zlashuv uslubi yetakchilik qiladi. Masalan, quyidagi qisqa dialogda buni ko‘rshimiz mumkin:

Xotin: Rosa charchagandirsiz, qornizam ochib ketgandir! Keling, dadasi, oldin bir ovqatlanvoling, keyin dam olasiz!

Er: ha, onasi, qornim tatalab ketdi. Ovqatingni suzaver, hozir o‘taman.

Xotin: Albatta, dadajonisi. Issiqligida yevoling.

Er: Qo‘llaring dard ko‘rmasin, azizam, “mazasi zo‘r chiqibdi”! Bay, bay!

Bu dialogda ortiqcha rasmiylik yo‘q, bevosita samimiylitni muloqot aks ettirilgan. So‘zlar – qisqa, erkin va og‘zaki nutq uchun xos bo‘lgan “qornim tatalab ketdi”, “mazasi zo‘r chiqibdi” kabi ifodalar ishlatilgan. Dialogda undov so‘z (“bay, bay”) ishlatilishi ham o‘ziga xoslikni ifodalagan. Shuningdek, suhbatdagi murojaat birliklari: “dadasi”, “onasi”, “dadajonisi”, “azizam” kabi so‘zlar muloqotda ochiqlik, erkinlikni ifodalaydi. Zero, muloqot jarayonida adresatga to‘g‘ri murojaat qila olish bu inson nutqining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Murojaatning har qanday turi uni faqatgina qabul qiluvchisiga yetkazishni tashkillashtirishdan iborat bo‘libgina qolmay, balki odob-axloq me’yorlariga rioya etgan holda suhbat chog‘ida adresat bilan og‘zaki nutqning mazmunli va samarali tus olishiga zamin yaratishdan iboratdir [6].

Shuningdek, o‘zbek oilalarida muloqotning madaniy jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

• **O‘zaro hurmat va izzat** – o‘zbek madaniyatida er-xotin bir-biriga hurmat bilan muomala qilishlari muhim sanaladi. Binobarin, muomala madaniyati ham keng ma’noda insonning butun hayoti va faoliyati davomida tarbiyalanadigan jarayon bo‘lib, u oilada, jamiyatda, jamoada shakllanadi [2, 8 b.].

• **An’anaviy gender rollari** – o‘zbek oilalarida erkak va ayolning an’anaviy rollari saqlanib qolgan. O‘zbek olalarida oilaviy muloqotda ham gender rollarga bog‘liqlikni kuzatish mumkin. Shuni ham alohida qayd etish kerakki, “ayol va erkak borliqni turlicha qabul qiladi va baholaydi. Nutqiy muomalaning gender o‘zgaruvchanligi tilning turli sathlarida, ya’ni fonetik, leksik, grammatik, semantik sathlarda namoyon bo‘ladi” [3].

• **Ma'naviy qadriyatlar** – oilaviy muloqot har bir xalqda o'zgacha bo'lishi mumkin va har bir xalqning bu bo'yicha o'z fikr-mulohazalari bilan birga o'z ma'naviy qadriyatlari ham bor. O'zbek xalqida ham shunday. "Keyingi yillarda ma'naviy qadriyatlarga e'tibor kuchaydi. Zero, ma'naviy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning irodasini mustahkam qiladigan, unga kuch bag'ishlaydigan asosiy omillardan biridir. Xalqimizning asrlardan asrlarga meros bo'lib kelayotgan ma'naviy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllanib, rivojlanib kelgan. Ularni uch ming yildan ortiq davrni mujassamlashtirgan xalqimiz sivilizatsiyasi yaratgan. Bizning ma'naviy qadriyatlarimiz ana shu sivilizatsiyaga uzviy bog'liq bo'lib, ular millatimiz shakllangan makon va ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabi ko'plab tushunchalarda ifodalanadi" [4].

Yuqorida keltirilgan madaniy omillar nafqat oilaviy muloqotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular o'sib kelayotgan yosh avlodning muloqot ko'nikmalari va nutq madaniyati shakllanishiga ta'sir qiladi.

O'zbek oilalarida er va xotin o'rtasidagi muloqot madaniy va lingvistik jihatdan o'ziga xoslik kasb etadi. U hurmat, samimiylilik va milliy qadriyatlarga asoslanadi. Lingvokulturologik tahlil shuni ko'rsatadiki, oilaviy muloqot o'zbek xalqining turmush tarzini, an'analarini va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim omildir. Shunday ekan, oilaviy muloqotga e'tibor qaratish milliy madaniyatni asrab-avaylashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gottman, J. (1994). Why Marriages Succeed or Fail. New York: Simon & Schuster.
2. Husanov B. Muomala madaniyati / Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / – T.: "Ta'lif nashriyoti", 2009. – 156 b.
3. Ismoilova Sh., Ismoilova H. Hushmuomalalik kategoriyasi va hurmat konseptining ingliz va o'zbek tillaridagi gender xususiyatlari // Science and innovation international scientific journal. Volume 1 ISSUE 6 UIF-2022: 8.2.
4. [Ma'naviy qadriyatlar https://oyina.uz/uz/teahause/ 1904](https://oyina.uz/uz/teahause/ 1904)
5. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi / O'quv qo'llanma. – T.: "Turon-Iqbol" nashriyoti, 2006. – 119 b.
6. Sulaymonova D. Oilaviy muloqotdagi murojaatning lingvomadaniy xususiyatlari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Scientific Journal. Volume 2 | ISSUE 5/2 ISSN 2181-1784
7. Воробьев В.В. О статусе лингвокультурология // IX Международный Конгресс МАПРЯЛ. Русский язык, литература и культура на рубеже веков Т.2. – Братислава, 1999. – С. 125-126.
8. Умарова М.М. Ўсмирларда оилавий қадриятлар тўғрисидаги тасаввурлар шаклланишининг ижтимоий-психологик шарт-шароитлари: Психол. фан. номз. ... дисс. – Т., 2004.
9. Лабунская В.А. Невербалная коммуникация в семе. – Москва: Наука, 2009.